

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI AXLOQIY TARBIYALASHDA
XALQ OG‘ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH**

*Ilmiy rahbar: Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna
Oripova Shaxzodaxon Otamurod qizi
FarDU, Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalash, o‘quvchilarini axloqiy jihatdan tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodidan foydalanish t o‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodining ta’lim-tarbiya jarayonida tutgan o‘rni, xalq og‘zaki ijodi na‘munalarining tarbiyaviy ahamiyati, mazmun-mohiyati, hamda xalq og‘zaki ijodidan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanishning pedagogik asoslari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: xalq og‘zaki ijodi, odob-axloq, tarbiya, ma‘naviy-axloqiy qadriyatlar, milliy qadriyatlar.

Jamiyatning taraqqiyoti insonlarning ongiga, aql-zakovati, axloq-odobiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Yaxshi tarbiya ko‘rgan kishi eng avvalo el-yurtning, xalqning manfaatini o‘ylaydi. Chunki har bir shaxsning baxt-saodati alohida, o‘z holicha amalga oshmaydi. Atrofdagilar baxtli va farovon turmush kechirganlarida huzur-halovat hammaga tatiydi. Bu qoida qadim zamonlardan mavjud bo‘lib, unga turli davrlarda turlicha amal qilib kelingan.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev kelajak yosh avlod tarbiyasiga katta ahamiyat berib: “Yoshlarimizning mustaqil fikrلaydigan, yuksak intelektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘s sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz “ deb takidlaydilar.

Mustaqil O‘zbekistonning rivojlanish yo‘li negizlari bo‘lgan umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma‘naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, vatanparvarlik hamda milliy tarbiyani amalga oshirishda xalq og‘zaki ijodi namunalari eng ta’sirchan vosita bo‘lib xizmat qiladi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilariga kuchli tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish mumkin bo‘lgan xalq og‘zaki ijodi turlariga maqollar, ertak va rivotatlar, qo‘shiqlarni kiritish mumkin. Topishmoqlar ko‘proq aqliy tarbiya va bilim olishning vositasi deb tahlil qilinadi. Lekin ularning ham tarbiyaviy ta’sirini inkor etish mumkin emas. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi namunalari hayotning turli-tuman tomonlarini o‘z ichiga olgan, kishilarni axloq-odobga, sabr-qanoatga, insof va diyonatga, to‘g‘rilik va rostgo‘ylikka chorlagan xalq donishmandligi durdonalarida yuksak insoniy ideallar targ‘ib qilingan. Boshlang‘ich sinflarda nisbatan ko‘proq o‘rganiladigan ertaklar, topishmoqlar, maqollarning til va badiiy xususiyatlari bir-biriga bog‘liq hamda farq qilinadigan tomonlari bilan ajralib turadi. Xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlari asosan, axloq-odob va tarbiyaning turli yo‘nalishlarini amalga oshirishga mo‘ljallangan bo‘lsa, topishmoqlar ko‘proq yoshlarning aqliy kamololtiga ta’sir etishning vositasi bo‘lib kelgan. Topishmoqlar qandaydir darajada muammoli ta’limga yaqin turadi. O‘quvchining oldiga muammoli savol, vazifa, topshiriq

hatto ayrim topishmoqlar muammoli vaziyat yaratish mumkin. Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-axloqiy jihatdan shakllanishi maktabning, oila va jamoatchilikning ta'siri ostida amalga oshib boradi. Bola kamolotining bu yo'naliishi uni kelajakda qanday inson, mutaxassis, o'zi va jamiyat uchun zarur hamda foydali bo'lishini belgilab beradi.

Milliy madaniyatni, uning ildizlarini asrab-avaylash va rivojlantirish tarix va madaniyat yodgorliklariga, an'anaviy xalq amaliy san'atiga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni talab qiladigan eng muhim vazifadir. Xalq og'zaki ijodi, xalq urf-odatlari, marosim va bayramlari, an'anaviy amaliy san'at va tasviriy san'atni qayta tiklash bugungi kunning dolzarb muammosidir. Folklor, uning janrlari, vositalari, usullari xalq hayotining butun manzarasini to'liq to'ldiradi, xalq hayoti, uning axloqi, ma'naviyati haqida yorqin tasavvur beradi. Xalq og'zaki ijodi xalqning ruhini, qadr-qimmatini, xususiyatlarini ochib beradi. Ilm-fan nuqtai nazaridan xalq og'zaki ijodi alohida o'rganishga, puxta baho berishga loyiq hodisadir.

Boshlang'ich sinf tarbiya darsalarida xalq og'zaki ijodidan bolalarga topishmoq aytish, uning javobini topish va xulosalar chiqarish, o'quvchilarni faqatgina o'sha aytilayotgan topishmoqning javobini topish uchun harakat qilishidagina emas, balki bolalar o'rtaida bir-biriga mehr, do'stlik, o'rtoqlik, hamjihat bo'lib harakat qilish kerakligi haqida fikrlar bildirilgan.

Xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy imkoniyatlari cheksizdir. Bugun jamiyatimiz xalq tajribasidan foydalangan holda, unutilgan an'analarni tiklamoqda, tarbiya nazariyasi va amaliyotining yangi modellarini yaratmoqda. Xalq og'zaki ijodiga, madaniyatning qadimiyligi qatlamlariga, an'anaga e'tibor inson tarbiyasi va kamolotining bitmas-tuganmas manbai sifatida keyingi yillarda ijtimoiy-pedagogik muhitda ayniqsa faol bo'ldi. Bu xalq og'zaki ijodi janrlarining funktional xususiyatlari, xalq og'zaki ijodining chuqur ma'naviyati va hikmati, milliy madaniyatning avloddan-avlodga o'tish jarayonining uzlusizligi bilan bog'liq.

Inson kamolotining biror sohasi yo'qliki, unga tez aytish, maqollar, ertaklar ta'sir etmagan b o'lsin. Tarbiya fanidagi ayrim materiallar yoshlarni tarbiyalashni qonun-qoidalari, printsiplari, metodlarini aks ettirish bilan ajralib turadi. Shunday imkoniyatlarga ega bo'lgan xalq og'zaki ijodi boshlang'ich sinflarda tarbiya fanining asosiy mazmuni tarkibiga kiritilgan holda o'rganib kelinmoqda. Folklorshunos olimlarning tadqiqotlarida xalq og'zaki ijodi janr xususiyatlari, badiiy qiymati, paydo bo'lishi va taraqqiyoti haqidagi qarashlari katta ilmiy ahamiyatga ega ekanligini tan olish zarur.

Ma'lumki, inson barkamolligi uning ma'naviy qadriyatlar haqidagi xalq og'zaki ijodi yoshlarda milliy va umuminsoniy fazilatlarni tarkib toptirishda, kundalik faoliyatlarida doim amalga oshirib borishlari uchun eng qulay vositadir. Zero, xalq og'zaki ijodi bolalar hayotida alohida o'rinn tutadi. Ular o'quvchilarga samarali tarbiyaviy ta'sir qilib, ma'naviy va axloqiy shakllanishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuksak ma'naviy-axloqiy tarbiyalangan insonda vatanga muhabbat, samimiy do'stlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, mustahkam e'tiqod, iymon, nafosat, axloqiy madaniyat singari fazilatlar mujassamlashadi. Uning sifat darajasi kishilarning umuminsoniy va milliy

qadriyatlarga, xalqning ma’naviy merosiga, xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Axloqiy tarbiyaning negizi hisoblangan xalq og‘zaki ijodi shaxsning ijtimoiy tuzumiga munosabati, turli ma’rifiy - axloqiy g‘oyalar, tushunchalar, qarashlar, tasavvurlar tizimining mahsulidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”, O‘zbekiston-2017.
2. Haydarov M. “Xalq og‘zaki ijodi na’munalarida tarbiya masalalari”, Fan,2004.
3. Bozorova M. “Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni do’stlik va o‘rtoqlik xislarini tarbiyalashda xalq an’analaridan foydalanish ”. Kand.diss. Toshkent, 1994.
4. Bahodirov O. Yangicha an’ana va urf-odatlar hayotga. “O‘zbekiston” nashriyoti, Toshkent, 1985 y, 42-b.
5. Pedagogika. Bilim olishning intellektual tizimini ishlab chiqish nazariyasi va amaliyoti .I.Mirzayev Toshkent-2019